

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA FAMILISTIK
MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMI**

Nagmetova N.M.,

Ajiniyoz nomidagi NDPI

“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19022150>

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishning metodik tizimi tahlil etilgan. Familistik madaniyatning mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning metodik tamoyillari, ta‘lim mazmuni yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *familistik madaniyat, metodik tizim, tarbiya jarayoni, pedagogik shart-sharoitlar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется методическая система развития фамилистической культуры у будущих учителей начальных классов. Освещены сущность и содержание фамилистической культуры, методические принципы ее формирования, содержание образования.*

Ключевые слова: *фамилистическая культура, методическая система, воспитательный процесс, педагогические условия.*

Abstract. *This article analyzes the methodological system for developing family culture in future primary school teachers. The content and essence of family culture, methodological principles of its formation, and the content of education are highlighted.*

Keywords: *familistic culture, methodological system, educational process, pedagogical conditions.*

Zamonaviy ta‘lim tizimida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning nafaqat kasbiy kompetensiyasini, balki shaxsiy-ijtimoiy madaniyatini ham rivojlantirish, oilaviy hayotga rejali, tizimli, maqsadli psixologik-pedagogik tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Familistik madaniyat – oilaviy qadriyatlarga asoslangan, oilaviy munosabatlar madaniyati va tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish qobiliyatlarini o‘z ichiga oluvchi muhim shaxsiy sifat sifatida alohida e‘tiborni talab qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirish metodik tizimini yaratish quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Birinchidan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yosh avlodga ta‘lim-tarbiya berish bilan birga, ularning oilaviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, o‘qituvchining o‘zida familistik madaniyatning shakllanganligi uning ota-onalar bilan hamkorlik qilish, oilaviy tarbiya masalalarida metodik yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Uchinchidan, jamiyatda oila institutining mustahkamlanishi, sog‘lom oilaviy munosabatlarning qaror topishi bevosita ta‘lim-tarbiya tizimi, xususan, boshlang‘ich ta‘lim bosqichidagi pedagogik faoliyat bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi.

Familistik madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyatini ochishda “refleksiya” va “madaniyat” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish muhim [1]. Pedagogik nuqtai nazardan, familistik madaniyat refleksiv madaniyat bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanadi, chunki o‘qituvchi o‘zining oilaviy tajribasini, qadriyatlar tizimini anglashi va tahlil qilishi orqaligina boshqalarga ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shaxsning familistik madaniyatini shakllantirish yagona sotsializatsiya jarayonining bir qismi bo‘lib, unda ma‘lum bir jamiyatning familistik madaniyatini o‘zlashtirish, voqelikning faol rivojlanishi, oilaviy munosabatlarning zarurati va yakuniy qiymatini tushunish masalalarida shaxs ongini bosqichma-bosqich shakllantirish sodir bo‘ladi. O‘qituvchining familistik madaniyatini shakllantirish zamonaviy ijtimoiy-pedagogik dolzarb muammolardan biri bo‘lib, hal qilishni talab qiladi [2].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni shakllantirish metodikasi oliy o‘quv yurtlari talabalarida oilaviy qadriyatlar, ularning ta‘lim faoliyatidagi o‘rni, o‘quvchilar va ularning oilalari bilan ishlashga tayyorgarlik haqidagi tushunchani shakllantirishga qaratilgan yondashuv.

I.V. Botvina o‘z ilmiy izlanishlarida oliy ta‘lim tashkiloti rahbarining familistik kompetensiyasini rivojlantirishda familistik kompetensiyani tushunishni rivojlantirish, o‘quvchi oilasi bilan konstruktiv o‘zaro ta‘sir o‘tkazish uchun motivatsiyani rivojlantirish, maktab va o‘quvchi oilasi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir texnologiyalarini o‘zlashtirishni aytib o‘tadi [3]. Shuningdek, keys-stadi, skrining, loyihaga asoslangan, o‘zini o‘zi tahlil qilish, sinovdan o‘tkazish kabi texnologiyalardan foydalanish hamda “Ustoz-shogird-o‘qituvchi triadasida munosabatlarning psixologik va pedagogik madaniyati” seminar tashki etish samarali natija berishini va natijada familistik kompetensiya rivojlanishini izohlaydi.

Familistik madaniyat oilaviy munosabatlar va ularning inson hayotidagi ahamiyatini tushunish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat yo‘nalishlari va munosabatlari yig‘indisidir. U o‘qituvchilarga o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning oilalari bilan samarali munosabatda bo‘lishga yordam beradigan kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nafaqat o‘qituvchi, balki maktab va oila o‘rtasida vositachi vazifasini ham bajaradi. Bu oilaviy rishtalarni mustahkamlash, ijobiy oilaviy an‘analarni

o'tkazish, o'quvchilarda oilaviy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishning metodik tizimi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Motivatsion-maqсадli komponent – bo'lajak o'qituvchilarda familistik madaniyatni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj va motivatsiyani shakllantirish, ularning oilaviy qadriyatlar tizimi haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga qaratilgan maqsadlarni belgilash.

2. Mazmunli komponent – familistik madaniyatning nazariy asoslari, oilaviy pedagogika va psixologiya, oilaviy munosabatlar etikasi, oilada bolalar tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari kabi mavzularni qamrab oluvchi o'quv materiallari mazmunini ishlab chiqish. Pedagogik kompetensiyani shakllantirishda mazmuniy komponent alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Faoliyatli komponent – familistik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan metodlar, shakllar va vositalar majmui. Bularga treninglar, rolli o'yinlar, keystadilar, loyihalar, ijtimoiy-amaliy mashg'ulotlar, oilaviy qadriyatlar mavzusida tadqiqot ishlari va boshqalar kiradi.

4. Diagnostik-natijaviy komponent – bo'lajak o'qituvchilarda familistik madaniyatning rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari, monitoring qilish va baholash tizimi kiradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishning metodik tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq:

1. *Tayyorgarlik bosqichi* – talabalarning familistik madaniyat haqidagi boshlang'ich bilimlari va tasavvurlarini aniqlash, ularni ushbu yo'nalishdagi ishlarga jalb qilish.

2. *Nazariy bilimlarni egallash bosqichi* – familistik madaniyatning nazariy asoslari, oilaviy qadriyatlar, oilaviy tarbiya usullari haqida tizimli bilimlarni shakllantirish.

3. *Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bosqichi* – oilaviy munosabatlar madaniyatiga oid amaliy ko'nikmalarni, ota-onalar bilan hamkorlik qilish metodikasini, oilaviy tarbiyada yordam berish qobiliyatlarini rivojlantirish.

4. *Ijodiy-amaliy bosqich* – egallangan bilim va ko'nikmalarni mustaqil faoliyatda qo'llash, loyihalar, tadqiqotlar, ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirish metodik tizimi ularni nafaqat kasbiy faoliyatga, balki ijtimoiy hayotga, oilaviy munosabatlarni to'g'ri tashkil etishga va yosh avlodni

oilaviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimni ta'lim jarayoniga joriy etish bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasini oshirishga, ularning kasbiy tayyorgarligi sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan metodik tizim oliy ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishida qo'llanilishi mumkin va bo'lajak o'qituvchilarda familistik madaniyatni rivojlantirish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.B. Djalov., Sh.N. Mirzaamedova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv madaniyatni rivojlantirishning metodologik asoslari // Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi, 2022. - №6. – B. 154-157.
2. Шлейкова Н.Ю. Формирование фамилистической культуры учителя как социально-педагогическая проблема. Известия ВГПУ, 2012.
3. И.В. Ботвина. Формирование фамилистической компетентности руководителя образовательной организации в процессе постдипломного образования. дисс. канд. пед.наук. – Волгоград: 2020, стр 168.